



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

NOFILOLOG TALABALARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI DASTURIY VOSITALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI

Doniyorova Gulrux Shoniyozovna
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
(90) 880 03 62
gulrukh.1989.12.05@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15176015>

***Annotatsiya.** Zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida dasturiy vositalardan keng foydalanilmoqda. Ushbu maqolada nofilolog talabalar uchun ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, dasturiy vositalarning roli va ularning samaradorligi muhokama qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** xorijiy til, dasturiy vositalar, kommunikativ kompetensiya.*

Kirish. Bugungi globallashtirilgan dunyoda ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, nofilolog yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ham ingliz tilida samarali muloqot qila olish muhim hisoblanadi. Bunday talabalar lingvistik fanlarga ixtisoslashmagan bo'lsalar-da, kelajakda o'z kasbiy faoliyatida xalqaro hamkorlik, xorijiy manbalarni o'rganish va xalqaro ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etishda ingliz tilidan foydalanishlari talab etiladi. Shu boisdan, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish dolzarb masalalardan biridir. Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning o'z fikrini ravon ifoda eta olish, tinglash, tushunish va samarali muloqot qila olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyani rivojlantirish har bir bo'lajak mutaxassis uchun kasbiy faoliyatda ingliz tilida axborot almashish, xalqaro ilmiy va texnikaviy nashrlar bilan ishlash, xorijiy mutaxassislar bilan muloqot qilish va ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun dolzarb sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada muxtasar bayon etilayotgan nofilolog talabalar uchun ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar, dasturiy vositalarning roli va ularning samaradorligi nazariy va diagnostik usullarda muhokama qilinadi.

Muhokama. Hozirgi kunda ingliz tilini o'rganish uchun yuzlab turli xil dasturiy vositalar mavjud. Onlayn platformalar va mobil ilovalar talabalarga mustaqil ravishda til o'rganish imkoniyatini bersa sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan chat-




XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

botlar til o'rganish jarayonini jonlantiradi va real vaqt rejimida muloqotni yo'lga qo'yishga yordam beradi. Demak talaba o'zining til ehtiyojlariga moslangan tarzda istalgan xorijiy tilni o'rganishni amalga oshira oladi. An'anaviy o'qitish usullari bilan solishtirganda, dasturiy vositalar asosida ingliz tilini o'rganish interfaol va qiziqarli muhit yaratish, tilni amaliy qo'llash imkoniyatini kengaytirish, individual yondashuvni ta'minlash, real hayotiy vaziyatlarda tilni qo'llashga imkon berish hamda talabalarni mustaqil o'rganishga undash kabi afzalliklarga ega. Nofilolog talabalar uchun ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy dasturiy vositalarning roli katta. Onlayn platformalar, chat-botlar, VR va AR texnologiyalari, videokonferensiyalar orqali til o'rganish samaradorligini oshirish mumkin. Interfaol yondashuvlar, gibrid ta'lim va gamifikatsiya metodlari talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Zamonaviy til o'rganish jarayoni nafaqat grammatik va leksik bilimlarni o'zlashtirish, balki tilni real muloqotda samarali qo'llay olish qobiliyatini ham shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga asoslangan metodologik yondashuvlar ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiya – bu til o'rganayotgan shaxsning turli nutqiy vaziyatlarda til vositalaridan to'g'ri va samarali foydalana olish qobiliyatini anglatadi.

Quyida nofilolog talabalar uchun ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan ba'zi bir zamonaviy yondashuvlar keltirib o'tildi.





XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

1-rasm. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy metodlar.

Kommunikativ yondashuv o'quvchilarning muloqot jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, bunda nutqiy faoliyatni rag'batlantirish va erkin fikr bildirish imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning muloqotga bo'lgan ishonchini oshirish bilan birga, ularning grammatik bilimlarini tabiiy nutqiy holatlar orqali mustahkamlashga yordam beradi.

Interfaol o'qitish metodlari esa o'quvchilarning o'zaro faol hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda rolli o'yinlar, munozaralar, fikr almashish kabi usullar qo'llaniladi. Bunday metodlar o'quvchilarni dars jarayonida faollikka undab, ularning til vositalaridan ijodiy foydalanishiga sharoit yaratadi. Situativ yondashuv esa til o'rganish jarayonida real hayotga yaqin muloqot sharoitlarini yaratish orqali o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, savdo, xizmat ko'rsatish, rasmiy uchrashuv kabi holatlar modellashtiriladi va o'quvchilar mazkur vaziyatlarga mos til birliklaridan foydalanishni o'rganadilar.

Umuman olganda, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodologik yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularning nutqiy malakalarini shakllantirish hamda til o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'lim muhitida ushbu yondashuvlarni integratsiya qilish o'quv jarayonining sifatini oshirishga va o'rganuvchilarning til bilish darajasini yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy dasturiy vositalarga *onlayn platformalar va ilovalar* (Duolingo, Busuu, BBc Learning English, EnglishCentral), *sun'iy intellektga asoslangan chat-botlar* (ChatGPT, Mondy Chatbot), *virtual va kengaytirilgan haqiqat texnologiyalari* (VRChat, Mondly AR) hamda *videokonferensiyalar va masofaviy ta'lim platformalari* (Zoom, Microsoft Teams, Google Meet, Edmodo, Moodle) larni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu dasturiy vositalar orqali ingliz tilini o'rganish nofilolog talabalar uchun kommunikativ kompetensiya chet tilini nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri qo'llay olish, balki uni muloqot jarayonida samarali ishlata olishni ham nazarda tutadi

Xulosa. Hozirgi globallashuv sharoitida ingliz tilida samarali muloqot qila olish har qanday soha mutaxassisi uchun zaruriy ko'nikma hisoblanadi. Ayniqsa, nofilolog yo'nalishidagi talabalar kasbiy faoliyatida xorijiy manbalar bilan ishlash, xalqaro loyihalarda qatnashish va chet ellik mutaxassislar bilan muloqot qilish zaruriyatiga duch keladilar. Shu sababli ularning ingliz tilidan kommunikativ kompetensiyasini



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Axborot texnologiyalari taraqqiyoti bilan ingliz tilini o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanish keng tarqalmoqda.

Kelajakda ushbu yondashuvlar yanada takomillashib, sun'iy intellekt va texnologiyalar yordamida til o'rganish jarayonini yanada soddalashtirishi kutilmoqda. Shu boisdan, pedagoglar va tadqiqotchilar zamonaviy dasturiy vositalarni samarali qo'llash bo'yicha izlanishlarni davom ettirishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bleyk, Robert "Technology and the four skills" Language Learning & Technology. 20(2), 129–142. <http://dx.doi.org/10125/444652016>
2. Carol A. Chapelle, "Computer Applications in Second Language Acquisition" Cambridge University Press (2001)
3. Gulrukh Doniyorova, Guzal Djumayeva, Dilfuza Djabbarova, Bobir Toshmamatov, "A technology for teaching ESP to those studying ecology and environmental sustainability" BIO Web of Conferences 93, 05001 (2024) Forestry Forum 2023, <https://doi.org/10.1051/bioconf/20249305001>